

## IJTIMOYIY TARMOQLAR TA'SIRIDA VUJUDGA KELGAN FUQAROLIK JURNALISTIKASI

*Dilobar Arabova*

*O'zbekiston Xalqaro islom akademiyasi magistranti*

**Annotatsiya.** So'nggi yillarda jahonda professional jurnalistika bilan bir qatorda fuqarolik jurnalistikasi tushunchasi ham yuzaga keldi. Bunga internet va ijtimoiy tarmoqlarning inson hayotiga yanada chuqur kirib kelganligi, jamiyatning befarq bo'lmagan a'zolarining atrofda yuz berayotgan voqealarni tezkor yoritib borishga qiziqishi sabab bo'lmoqda. O'z navbatida, internet erkin fikr bildirish uchun qulay maydonga aylanib, istagan shaxs axborot tarqatish kanallari orqali o'zlarining qiziqishlariga ko'ra ma'lumotlar va axborotlarni to'siqsiz e'lon qilmoqda. Natijada, axborotning ishonchlilik darajasi, mualliflik huquqi bilan bog'liq muammolar sohaning asosiy masalasiga aylandi. Globallashuv sharoitida rivojlangan davlatlarda fuqarolik jurnalistikasi fenomeni ilmiy va amaliy jihatdan o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** fuqarolik jurnalistikasi, bloglar, ijtimoiy tarmoqlar, messenger, internet-resurslari, auditoriya

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng mamlakatimizda OAVga bo'lgan e'tibor yanada kuchayib, uning huquqiy asoslari mustahkamlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2017-yil 27-iyundagi "Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga tabrigi"da "Kundalik hayotimizning ajralmas qismi bo'lgan ommaviy axborot vositalari haqida so'z yuritganda, biz, avvalo, doimo yangilik izlab, yangilikka intilib, hayotning qaynoq nuqtalariga kirib boradigan, xolislik va haqqoniylik, Vatan va xalq manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yadigan oliyjanob va mas'uliyatli kasb egalarini tasavvur qilamiz", - deya jurnalistlarga va ularning kasbiga yuksak baho bergan edi<sup>11</sup>. Axborot globallashuvi davrida professional jurnalistlar bilan birga, fuqarolik jurnalistlarning faoliyatiga ham ahamiyat qaratildi. Buni Prezidentimizning: "Ko'p-ko'p

<sup>11</sup> Мирзиёев Ш.М. Матбуот ва оммавий ахборот воситалари ходимларига табрик нутқи. – Т.: 2017.  
<https://www.uza.uz/uz/posts/matbuot-va-ommaviy-akhborot-vositalari-khodimlariga-27-06-2017>

narsalar O‘zbekistonda ochiq aytilyapti, hamma buni ko‘rib turibdi. Lekin bitta narsani bilinglar, bu ochiqlik hech qachon orqaga qaytmaydi! Qancha ko‘p ochiqlik bo‘lsa, ommaviy axborot vositalari odamlarimizga haqiqiy muammolarni qancha ko‘p yetkazsa, men rahbar sifatida ulardan minnatdor bo‘laman”<sup>12</sup>, - degan fikri bilan tasdiqlaydi.

Fuqarolik jurnalistikasi (uni ishtirokchi jurnalistika, partizan jurnalistikasi<sup>13</sup>, ko‘cha jurnalistikasi<sup>14</sup> va demokratik jurnalistika<sup>15</sup> deb ham atash mumkin) - bu jurnalistikaning bir turi yoki internet rivojlanishi bilan keng tarqalgan muqobil ommaviy axborot vositalarining bir tarmog‘i va u nonprofessional mualliflar faoliyatini nazarda tutadi. Fuqarolik jurnalistikasi oddiy fuqarolarning axborotni to‘plash, tahlil qilish va tarqatish jarayonida faol ishtirok etishiga asoslanadi<sup>16</sup>.

“Fuqarolik jurnalisti - bu jurnalistik bilimga ega bo‘lmagan holda jurnalistika bilan shug‘ullanadigan odam”, deydi raqamli yangiliklar tendentsiyalarini kuzatuvchi MediaShift veb-sayti asoschisi Mark Glaser<sup>17</sup>. Glaserning so‘zlariga ko‘ra, “fuqarolik jurnalistikasi” o‘z kuzatuvlaringizni kengroq auditoriyaga yetkazish va o‘zingiz guvoh bo‘lgan voqealar haqida ijtimoiy tarmoqlarda ma’lumotlarni joylashtirishni ham anglatadi. Undan tashqari, fuqarolik jurnalistikasida yana bir keskin o‘zgarish ijtimoiy media vujudga kelishi bilan yuz berdi. Smartfonlar paydo bo‘lishi bilan atrofingizda sodir bo‘layotgan voqealarni suratga olish, Twitter, Facebook, Instagram va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirish juda oson bo‘ldi. Shu tariqa ko‘p sonli potensial fuqarolik jurnalistlari paydo bo‘ldi. Fuqarolik jurnalistlari an’anaviy ommaviy axborot vositalari e’tiboridan chetda qolgan yoki keng muhokama qilinayotgan masalalarni batafsil yoritishi, voqea joyidan bevosita ma’lumot (videoyozuvlar, guvohlar) taqdim etishi mumkin.

<sup>12</sup> URL: <https://www.xabar.uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyev-oav-va-bloger>

<sup>13</sup> Case, J. A. «Recovering the Radical: Biocybernetic Subversion in Guerrilla Video Primer [Архивная копия](#) от 10 июня 2010 на [Wayback Machine](#)» Paper presented at the NCA 93rd Annual Convention, Chicago, IL, November 14, 2007.

<sup>14</sup> Tamara Witschge. Street journalists versus 'ailing journalists'? openDemocracy - free thinking for the world. openDemocracy Ltd (27 марта 2009). Дата обращения: 21 мая 2012. Архивировано из [оригинала](#) 30 августа 2009 года.

<sup>15</sup> Baase, S. «A Gift of Fire». Prentice Hall, 3rd edition, 2008.

<sup>16</sup> Bowman, S. and Willis, C. «We Media: How Audiences are Shaping the Future of News and Information» 2003, The Media Center at the American Press Institute.

<sup>17</sup> Хотите стать гражданским журналистом? Возможно, вы уже им являетесь. По ShareAmerica 30 Апрель, 2018.

Fuqarolik jurnalistikasining rivojlanishiga asosan o‘z foydalanuvchilariga “o‘zaro ta’sir va interaktiv ishtirokning yangi mexanizmlarini” taqdim etuvchi yangi media yordam beradi<sup>18</sup>. Internet va ijtimoiy tarmoqlar tufayli bugungi kunda ma’lumotni tarqatish, qiziqarli ma’lumotlarni topish, shuningdek, muayyan muammolarga jamoatchilik e’tiborini jalb qilish ancha osonlashdi. Fuqarolik jurnalistlarining hikoyalari asosiy an’anaviy ommaviy axborot vositalari bilan taqqoslab bo‘lmaydigan onlayn auditoriyani jalb qila oldi. O‘z fikrini ochiq aytadigan muallif tushunchasi ko‘p asrlar davomida mavjud bo‘lsa-da, aynan internetning paydo bo‘lishi fuqarolik jurnalistikasining rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Ommaviy axborot vositalari sotsiologi Valeri Belair Gagnonning so‘zlariga ko‘ra, internet an’anaviy axborot tashkilotlarini kam markazlashtirilgan narsaga almashtirdi. Glaserning ta’kidlashicha, fuqarolik jurnalistlarining ishi an’anaviy ommaviy axborot vositalarida yoritilmagan fikrlarni ifodalashga yordam beradi. Bunday xabar manbasining kamchiligi shundaki, fuqarolik jurnalistlaridan ma’lumotlar olganingizda doimo ishonch muammosi bo‘ladi.

Fuqarolik jurnalistikasining faoliyati quyidagi ko‘rinishlari quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

Blog (inglizcha: web log<sup>19</sup> – “veb-jurnal” so‘zidan) bu veb-saytning bir ko‘rinishi bo‘lib, undagi maqolalar xronologik tarzda yoziladi. Aksariyat bloglarda ma’lum bir mavzuga tegishli yangilik yoki sharh chop etiladi, boshqalari esa shaxsiy onlayn kundalik sifatida xizmat ko‘rsatadi.

Washington Profile ma’lumotlarga ko‘ra, birinchi blog varaqasiga 1992-yili TIM BERENS Li tomonidan yangiliklar nashr etgan. 1996-yili bloglardan foydalanish keng ommaga yoyildi. 1999-yil avgust oyida San-Fransiskolik PYRA LABS kompaniyasi Blogger saytni ochdi. U birinchi bepul blog xizmati edi. Keyinchalik Blogger Google kompaniyasi tomonidan sotib olindi. 2004-yili Apple kompaniyasi hali rasmiy e’lon qilinmagan yangi tovarlari haqida bloggerlar ma’lumot tarqatganligi uchun ularni sudga

---

<sup>18</sup> Citizen Journalism: History of the Term. Дата обращения: 21 июня 2022. Архивировано 4 августа 2016 года.

<sup>19</sup> Blood, Rebecca, „Weblogs: A History And Perspective“ (7-sentabr 2000-yil).

berdi, ammo sudda yutqazdi. 2006-yili sud bloggerlar ham jurnalistlar ega bo‘lgan huquqlarga ega deb qaror chiqardi.

Mualliflik turlariga ko‘ra bloglar quyidagi turlarga bo‘linadi:

- Shaxsiy blog – bir kishi tomonidan yuritiladi (qoidaga ko‘ra blog egasi tomonidan);
- Timsoliy blog – ma’lum bo‘lmagan noaniq shaxs tomonidan yuritiladi;
- Jamoali yoki ijtimoiy blog – blog egasi aniqlab bergan ma’lumotlar asosida bir guruh shaxslar tomonidan yuritiladi;
- Jamiyat blogi – bir tashkilot azolari tomonidan yuritiladi.

Bundan tashqari bloglar multimedaviy va texnik asoslarga ko‘ra ham turlarga ajraladi.

Shuningdek, fuqarolik jurnalistikasining faoliyat maydonlaridan yana biri ijtimoiy tarmoqlardir. Aslini olganda, blog-postlar ijtimoiy tarmoqlarda ham e‘lon qilib boriladi. Ijtimoiy tarmoq – bu qiziqishlari o‘xshash yoki oflayn aloqaga ega bo‘lgan odamlar o‘rtasida muloqot qilish, tanishish, ijtimoiy munosabatlar yaratish uchun, shuningdek, ko‘ngilochar (musiqa va filmlar) va ish maqsadlarida ishlatiladigan onlayn platforma. Ijtimoiy tarmoqlar kuchli marketing tadqiqotlari vositasidir, chunki foydalanuvchilar o‘zlari, qarashlari, qiziqishlari, didlari va hokazolar haqidagi ma’lumotlarni ixtiyoriy ravishda joylashtiradilar.

Messenjer – foydalanuvchilarning onlayn rejimda Internet jahon axborot tarmog‘i orqali matn, audio, audiovizual va boshqa xabarlar va materiallar, boshqa ma’lumotlar orqali darhol almashish, tarqatish va uzatish, shuningdek ular o‘rtasidagi masofadan muloqot uchun mo‘ljallangan dastur, mobil ilova yoki veb-xizmat. Ushbu ta’rif “Butunjahon internet tarmog‘ida axborot xavfsizligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari” to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qaroridan ham o‘rin olgan.

Shunday qilib, internetning keng yoyilishi barobarida fuqarolik jurnalistikasi bugun hayotimizga jadal sur‘atlar bilan kirib bormoqda. Uning ahamiyati ham salmoqli darajada. Albatta, uni professional jurnalistika bilan taqqoslash biroz xato bo‘lishi

mumkin. Ammo auditoriyani yuqori darajada jalb qilayotganini e'torof qilmasdan ilojimiz yo'q. Yer yuzida istiqomat qiluvchi har bir inson bevosita fuqarolik jurnalisti maqomida bo'lish imkoniyatiga ega.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мирзиёев Ш.М. Матбуот ва оммавий ахборот воситалари ходимларига табрик нутқи. – Т.: 2017. <https://www.uza.uz/uz/posts/matbuot-va-ommaviy-akhborot-vositlari-khodimlariga-27-06-2017>
2. URL: <https://www.xabar.uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyev-oav-va-blogger>
3. Case, J. A. «Recovering the Radical: Biocybernetic Subversion in Guerrilla Video Primer Архивная копия от 10 июня 2010 на Wayback Machine» Paper presented at the NCA 93rd Annual Convention, Chicago, IL, November 14, 2007.
4. Tamara Witschge. Street journalists versus 'ailing journalists'? openDemocracy - free thinking for the world. openDemocracy Ltd (27 марта 2009).
5. Baase, S. «A Gift of Fire». Prentice Hall, 3rd edition, 2008.
6. Bowman, S. and Willis, C. «We Media: How Audiences are Shaping the Future of News and Information» 2003, The Media Center at the American Press Institute.
7. Хотите стать гражданским журналистом? Возможно, вы уже им являетесь. По ShareAmerica 30 Апрель, 2018.
8. Citizen Journalism: History of the Term. 2022.
9. Blood, Rebecca «Weblogs: A History And Perspective» 2000.